

G'AFUR G'ULOM ASARLARIDA YUKSAK INSONIY FAZILATLARNING AKS ETTIRILISHI

Gulmurodov Firuzbek Olimjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

ORCID: 0000-0002-1602-2373

gulmurodovfiruzbek@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada G'afur G'ulom asarlari, ularda insoniy hislatlar, chin insoniy fazilatlar, jumladan: odamiylik, muhabbat, bilimga bo'lgan yuksak mehr, vaqtning qadriga yetish kabilar bilan bir qatorda G'afur G'ulom ijodining nazariy tahliliga ham guvoh bo'lishimiz mumkin. Shuningdek, G'afur G'ulomning bir qator asarlari: "Vaqt", "Sen yetim emassan", "Yonma-yon ketaylik", "Sizga" she'rlari hamda "Hasan kayfiy" hikoyasi nazariy tahlili hamda ahamiyati haqida batafsil xulosalar hamda yuksak e'tirof etilgan fazilatlar haqida batafsil to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: adabiyot, insoniy fazilatlar, ilmiy meros, nazariy tahlil.

O'zbek adabiyotining taniqli shoiri, akademik, sevimli bolalar yozuvchisi bo'lish bilan bir qatorda tarjimon G'afur G'ulomning asarlari o'zining rang-barangligi hamda serqirraligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Agarda ushbu asarlarni nazariy jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, ularda tinchlikni qadrlash, urushni qoralash haqida fikrlarning guvohi bo'lishimiz mumkin. Fikrimning isboti sifatida "Sen yetim emassan" she'riga nazar tashlaydigan bo'lsak, ushbu she'r avvalo, 1941-1945-yillarda urushning qora kunlarini ko'rgan, ota-onasiz qolgan bolalarga bag'ishlangan bo'lib, she'r davomida hali yorug' kunlar kelishiga bo'lgan buyuk ishonch shoir she'ringing har bir bandida ufurib turadi.

La'li labingdagi g'uncha tabassum,

Albatta toleyingga muxr bo'ladi

Va bunda aks etar porloq kelajak.

Tong yaqin, tong yaqin, oppoq tong yaqin.

Yuqoridagi jumladan ham guvohi bo'lishimiz mumkinki, yetimlik azobini totgan bolalarning tabassumi ularning tortgan azoblari-yu g'amlariga chek qo'yadi va bu gulgun tabassum hali porloq kelajakning guvohi bo'lishiga, hali yorug' kunlar kelishiga bo'lgan cheksiz ishonch aks ettirilgan. Shuningdek, G'afur G'ulom ijodida urush qoralanishi bilan birgalikda yuksak insoniy hislatlarning ham guvohi bo'lishimiz mumkin. Masalan, "Yodgor" qissasida bir ayolga yaxshilik qilish ilinjida yordam qo'lini cho'zgan yigitning nogoh yolg'on girdobiga tushib qolishi hamda bir chaqaloqning taqdiriga mas'ul hamda aloqador inson bo'lib qolishi hamda voqealar rivojida o'ziga umuman begona bo'lgan yosh go'dakning taqdiriga daxldorlik hissi ila

voyaga yetkazishi, mehr bilan ulg'aytirishi guvohi bo'lishimiz mumkin. Fikrlarimizning isboti sifatida quyidagi maktubni keltirishimiz mumkin: "Yodgor farzanding yaxshi ulg'aymoqda, har zamonda dada deb seni eslab qoladi, shunda dadang yaqinda keladi deb qolamiz. Yaxshiyamki shu Yodgoring bor, barchamiz u bilan ovunamiz" Yuqoridagi jumlar Jo'raga uning armiyada xizmatda bo'lgan davrida yozilgan bo'lib, Yodgorning otasiga bo'lgan mehri, oilaning umuman o'ziga begona bo'lgan go'dakni mehr ila ulg'aytirishi keltirib o'tilgan. Yuqoridagi jumlar orqali "Yodgor" qissasini o'qiyotgan inson miyasida, fikrlarida yuksak insoniy fazilatlar gavdalanadi. Bu ham albatta insoniyatning cheksiz insoniy fazilatlar oldida hamisha taslimligining bir isbotidir. Shuningdek, shoirning "Vaqt" she'ri orqali vaqtning qadri ahamiyati, uning har bir soniyasi tarix zarvaraqlarimizning bir sahifasi misoli qimmatli ekanligi yana bir bor tavsiflab o'tilgan:

Aziz asrimizning aziz onlari

Aziz insonlardan so'raydi qadrin

Fursat g'animatdir, shoh satrlar-la

Bezamoq chog'idir umr daftarin.

G'afur G'ulom asarlarini aynan bitta mavzu doirasida yozilgan deyish mushkul, albatta. Bir asarida tarix zarvaraqlari, urush xotiralari guvohi bo'lsak, boshqa bir asarida umuman boshqa mavzuning guvohi bo'lishimiz mumkin. G'afur G'ulom asarlarida insoniylik hislatlari bilan birgalikda aql va mehnat har qanday og'ir vaziyatda ham insonga yordam bera olishi mumkinligiga da'vat etuvchi hikoyalarni ham uchratishimiz mumkin. "Hasan Kayfiy" hikoyasi aynan shu mavzu haqida. Hikoya bosh qahramoni Hasan ismli inson bo'lib, u har qanday holatda ham uni aql va mehnat qutqara olishiga ishonadi. Bundan podshoh xabar topadi hamda qanday yo'l bilan bo'lmasin, uni podshohimiz omon bo'lsin deb duo qilishga majbur qilish maqsadida turli vaziyatlarga solib qo'yadi. Masalan, quyidagi suhbat davomida ham buning guvohi bo'lishimiz mumkin:

- **Siz, Hasan Kayfiy, nuqul: "Aqlim bilan mehnatim bor bo'lsin" deyaverasiz, biror marta podshohingizni eslamaysiz. Podshohimiz omon bo'lsin, boshimizga soyabon bo'lsin, xudo yor bo'lsin degan duolarni ham gapingizga qo'shib aytsangiz bo'lmaydimi?**
- **Iyeee, shu kichkina ro'zg'oringa podshohni aralashtirib nima qilaman? Podshohga turli-tuman soliq, o'lpon kerak. Uning fuqarolari bilan ishi yo'q. Shuning uchun mening ishonadigan narsam aqlim va mehnatim, taqsir. Boshqasidan hech qanday ilinjim yo'q.**

G'afur G'ulom bolalar yozuvchisi bo'lganligi bois ham uning asarlari orqali ibratli xulosalar olish, uni o'qiyotgan kitobxon ko'z oldida asardagi qahramonlar, voqealar gavdalanishi bejiz emas. Agarda e'tibor berib o'qilsa, har bir kichik asar, she'r

o'ziga yarasha kichik xulosalar bilan yakunlangan. Masalan, "Sizga" she'ri 1948- yilda bitilgan bo'lib, unda shoir yoshlarni ilmi bo'lishga da'vat etish bilan bir qatorda ularga nisbatan bo'lgan cheksiz ishonch, buyuk kelajakni yaratish sari olg'a qadam tashlashga bo'lgan da'vatning guvohi bo'lishimiz mumkin:

**Siz, axir, osmonni olmoq bo'lsangiz,
Ne uchun yelkamni tutib bermayin,
Aqlu balog'atning shotutlaridan
Yuksala beringiz sekundlar sayin.**

G'afur G'ulomning ba'zi she'rlari tarixiy hodisalar, ma'lumotlar va shaxslar obrazini aks ettirish asosiga qurilgan. Bunday asarlar tarixning badiiy solnomasi, tarixiy shaxs taqdiri, qiyofasining in'ikosi qadar aniqlik kasb etadi "Turksib yo'llarida", "Hamza xotirasi", "Insoniyat tarixining birinchi kosmonavtiga" she'rlariga shunday xususiyat xosdir. G'afur G'ulom she'rlari, asarlari orasida nafaqat yosh bolalar, balki, o'rta yoshli insonlar, barcha yosh toifasidagi insonlar uchun xos va mos bo'ladigan janr hamda mazmundagilarni topish mushkul emas. Masalan, "Yonma-yon ketaylik", "Sevsam sevibmanda" she'rlari o'z muhabbatiga yetish ilinjida harakat qilayotgan oshiqni eslatadi va bu she'rlar albatta nafaqat yoshlarga, balki katta yoshli insonlarga ham yoshlik chog'larini, ilk bora muhabbat ifori ila mast bo'lgan kezlarini eslatib yuboradi:

**Bizga nasib bo'ldi bu ulug' manzil,
Yo'llari charog'on, toza, yam-yashil.
Yo'doshin topmasdan qo'yarmidi dil,
Baxtingga sherik qil, jonginam kafil,
Juft hayot quraylik dunyo turguncha,
Hamdam bo'l, umrimiz davom etguncha.**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, G'afur G'ulom faqatgina yoshlar shoiri emas, balki barcha yoshdagi insonlarning sevimli yozuvchi hamda shoiridir. Uning asarlar rang-barangligi, sermazmunligi hamda ibratona xulosalar hamda fikrlarga boyligi bilan ajralib turishi bilan bir qatorda umri boqiy bo'ladi. Asrlar, davrlar osha kitobxonlar qo'lidan qalbiga, qalbidan shuuri hamda ongiga o'tib yashab keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamrayev. Ona tilidan mashqlar to'plami. TDPU, Toshkent, 2009-yil. -240 bet.
2. Jumaboyev M. O'zbek bolalar adabiyoti. –T.: O'qituvchi, 2002, -290 bet.
3. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil. -300 bet.